



JIZZAX VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI


# JIZZAX VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YIL  
YANVAR-MAY



*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan



## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-may)


Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Jizzax viloyati	3 791,1	100,0	110,0
Jizzax sh.	1 521,5	40,1	104,0
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	65,5	1,7	119,3
Baxmal	273,6	7,2	122,8
G'allaorol	320,5	8,5	115,5
Sharof Rashidov	512,6	13,5	109,9
Do'stlik	128,2	3,4	114,7
Zomin	307,0	8,1	112,6
Zarbdor	141,4	3,7	113,4
Zafarobod	69,5	1,8	115,4
Mirzacho'l	107,5	2,9	112,2
Paxtakor	139,1	3,7	125,3
Forish	177,5	4,7	115,7
Yangiobod	27,2	0,7	87,8

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

# Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

(2019-2023- yillar yanvar-may)



2023- yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 562,8** ming so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-may** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,6 %** ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar

(2023- yil yanvar-may)

	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>2 562,8</b>	<b>107,6</b>
Arnasoy	1 362,3	117,6
Baxmal	1 637,3	120,1
G'allaorol	1 748,6	113,1
Sharof Rashidov	2 159,4	107,1
Do'stlik	1 858,1	112,7
Zomin	1 746,3	110,0
Zarbdor	1 524,2	110,8
Zafarobod	1 315,5	113,0
Mirzacho'l	1 968,7	110,2
Paxtakor	1 749,2	122,5
Forish	1 829,6	113,9
Yangiobod	922,7	86,6
Jizzax shahri	7 907,9	101,3



**2019- yil yanvar-may** oylariga nisbatan **2023- yil yanvar-may** oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi **1 133** mlrd. so'mga oshib, **2 165,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **57,1 %** ni, shu jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar **18,6 %** ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sohasi iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, yangi ish o'rinlarini yaratishga, aholi daromadlarini oshishi va farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik

(2023- yil yanvar-may, mlrd. so'mda)

**Jizzax viloyati – 2 165,1**

Jizzax sh. – 563,1	Paxtakor – 89,6
Sh. Rashidov – 418,5	Do'stlik – 85,5
G'allaorol – 236,9	Mirzacho'l – 61,4
Zomin – 206,9	Zafarobod – 47,1
Baxmal – 166,8	Arnasoy – 42,6
Forish – 128,9	Yangiobod – 22,1
Zarbdor – 95,7	

Xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik tadbirkorlikning umumiy hajmida **37,0** foiz yoki **563,1** mlrd. so'm Jizzax shahriga to'g'ri keldi.






## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-may)

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>3 791,1</b>	<b>100,0</b>	<b>110,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	194,5	5,1	122,8
Moliyaviy xizmatlar	1 101,7	29,1	123,2
Transport xizmatlari	533,3	14,1	103,4
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	513,0	13,5	100,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	130,8	3,4	104,9
Savdo xizmatlari	1 078,7	28,5	106,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	68,2	1,8	101,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	168,9	4,5	105,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	71,4	1,9	98,9
Ijara xizmatlari	58,8	1,5	84,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	92,7	2,4	101,6
Shaxsiy xizmatlar	107,1	2,8	101,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	47,6	1,3	106,7
Boshqa xizmatlar	137,4	3,6	103,8




2019- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **2023-** yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **797,7** mlrd. so'mga oshib, **1 101,7** mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **29,1** foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **123,2** % ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-may)

**2023-** yilning yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **95,3** % ni tashkil etdi.



Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi **62,1** foizni yoki **684,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**2022-** yilning yanvar-may oylariga nisbatan Baxmal tumanida yuqori o'sish sur'ati **253,9** % ni tashkil etdi.






# Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2023- yil yanvar-may)

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi (% da)	Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar	Sug'urta bo'yicha xizmatlar	Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar
<b>Jizzax viloyati</b>	95,3	3,5	1,2
Arnasoy	99,4		0,6
Baxmal	99,2		0,8
G'allaorol	99,2		0,8
Sharof Rashidov	98,9		1,1
Do'stlik	98,2		1,8
Zomin	99,2		0,8
Zarbdor	99,1		0,9
Zafarobod	99,4		0,6
Mirzacho'l	98,9		1,1
Paxtakor	98,7		1,3
Forish	99,0		1,0
Yangiobod	89,4		10,6
Jizzax sh.	93,1	3,5	1,2


## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi

(mlrd. so'mda)





2023- yilning yanvar-may oylarida transport xizmatlari hajmi **533,3** mlrd. soʻmni tashkil etib, **2022-** yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining oʻsish surʻati **103,4** % ni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **14,1** % ni tashkil etdi.




**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari boʻyicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bogʻliq boʻlgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.


**2023- yilning 1- iyun** holatiga koʻra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bogʻliq boʻlib, faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **427** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **3,4** % ini tashkil etdi. Ulardan **425** birlik (**99,5** %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

## Transport xizmatlarining turlari boʻyicha tarkibi

(2023- yil yanvar-may)




Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **96,2** %.



Oʻzbekiston geografik joylashuvining muhim xususiyati zamonaviy transport kommunikatsiya tizimining mavjudligidir.

**2019- yilning yanvar-may** oylariga nisbatan Sh.Rashidov tumarida transport xizmatlari hajmi **154,4** mlrd. soʻmga oshib, hisobot davrida **200,0** mlrd. soʻmni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-may** oylariga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlari hajmining oʻsish surʻati **109,0** % ni tashkil etgan.

Arnasoy tumanida ushbu koʻrsatkich **4,2** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Bunda mazkur xizmatlarning oʻsish surʻati **101,6** % ni tashkil etdi.



2022-yil yanvar-may oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning oʻsish surʻati **100,7 %** ni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,5 %** ni tashkil etdi.

■ Oʻsish surʻati, % da

■ Hajmi, mlrd. soʻmda

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yoʻlda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yoʻlovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish boʻyicha xizmatlar va koʻchish boʻyicha xizmatlar kiradi.

**2023- yilning yanvar-may** oylarida avtomobil transportida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi **513,0** mlrd. soʻmga yetdi.



## Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yuklarini tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **55,9 %**.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-may oylarida ushbu koʻrsatkich **56,9 %** ni tashkil etgan.




# Savdo xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-may)

**2019- yilning yanvar-may** oylariga nisbatan **2023- yilning yanvar-may** oylarida savdo xizmatlari hajmi **550,4** mlrd. so'mga oshib, **1 078,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-may** oylariga nisbatan ushbu xizmat turi bo'yicha o'sish sur'ati **106,5 %** ga yetdi.



**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.



**2023- yilning 1- iyun** holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band bo'lganlarning ulushi **45,4 %** yoki **5 706** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,8 foizi (5 697 birlik)** kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.





9,1 %

**Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlar**

**2023- yil yanvar-may**

oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rttdan uch qismini, ya'ni **78,2 %** ni tashkil etdi.

78,2 %

**Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**



12,7 %

**Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar**



### Hududlar

*Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar*


*Ulgurji savdo xizmatlari*

*Chakana savdo xizmatlari*

Hududlar	<i>Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar</i>	<i>Ulgurji savdo xizmatlari</i>	<i>Chakana savdo xizmatlari</i>
Jizzax viloyati	12,7	9,1	78,2
Arnasoy	9,5	1,9	88,6
Baxmal	38,8	2,8	58,4
G'allaorol	3,8	1,5	94,7
Sharof Rashidov	10,1	8,3	81,6
Do'stlik	4,5	20,7	74,8
Zomin	5,7	7,9	86,4
Zarbdor	2,2	13,2	84,6
Zafarobod	5,4	3,7	90,9
Mirzacho'l	2,6	5,8	91,6
Paxtakor	6,6	1,3	92,1
Forish	3,6	1,7	94,7
Yangiobod	3,0	3,5	93,5
Jizzax shahri	19,0	19,9	61,1

# Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-may)



2023- yilning yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **194,5** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, **o'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **122,8** % ni tashkil etdi.




**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**2023- yilning 1- iyun** holatiga ko'ra "Axborot va aloqa" faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **219** birlikka yetdi, shundan **202** birligi (umumiy sonining **92,2** %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-may)





# Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-may)

	Hajmi, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʼati, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>194,5</b>	<b>100,0</b>	<b>122,8</b>
Arnasoy	5,5	2,8	127,7
Baxmal	18,3	9,4	126,5
Gʻallaorol	20,0	10,3	126,8
Sharof Rashidov	26,0	13,4	125,1
Doʻstlik	7,6	3,9	125,1
Zomin	19,1	9,9	126,8
Zarbdor	10,3	5,3	127,3
Zafarobod	5,8	3,0	127,4
Mirzachoʻl	6,2	3,2	126,6
Paxtakor	9,4	4,8	125,5
Forish	32,4	16,6	116,3
Yangiobod	3,4	1,7	126,4
Jizzax shahri	30,5	15,7	116,0


<sup>1)</sup> hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**2019- yilning yanvar-may** oylariga nisbatan Forish tumarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **6,4** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **32,4** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **16,6** % ni tashkil etdi.

Yangiobod tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **3,4** mlrd. soʻmni tashkil etdi.



**2023- yiling yanvar-may** oylarida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi **170,0** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **4,5 %** ni tashkil etgan.



**Telekommunikatsiya xizmatlari** bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video maʼlumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

## Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi


(2023- yil yanvar-may, mlrd. soʻmda)

**Jizzax viloyati– 170,0<sup>1)</sup>**

Jizzaxt sh. – 28,8	Paxtakor – 8,8
Sharof Rashidov – 25,9	Doʻstlik – 7,6
Gʻallaorol – 19,9	Mirzachoʻl– 6,1
Zomin – 19,0	Zafarobod – 5,8
Baxmal – 18,0	Arnasoy – 5,5
Forish – 11,0	Yangiobod – 3,4
Zarbdor – 10,2	

<sup>1)</sup> hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda





2023- yil yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **168,9** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **105,8** % ni tashkil etdi.




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yilning yanvar-may** oylarida ularning ulushi **74,1** % ni tashkil etdi.

“**Ta'lim**” **seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.





**2023- yil yanvar-may** oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **71,4** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,9 %** ini tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**2023- yilning 1- iyun** holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **327** birlikni tashkil etdi, shundan **242** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.


## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-may, mlrd. so'mda)



# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-may)

2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **74,7** mlrd. so'mga oshib, **130,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.


**2023- yilning 1- iyun** holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 223** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 213** birligi (umumiy sonining **99,2** %) kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**  
(2023- yil yanvar-may)





# Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-may)



2023- yilning yanvar-aprel oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **68,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,8** % ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-may** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,5** % ni tashkil etgan.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.


## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**2023- yilning yanvar-may** oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **47,6** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **1,3** % ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-may** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **106,7** % ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi

**Jizzax viloyati—  
47 636,9**


(2023- yil yanvar-may, mln so'mda)

Jizzax sh. – 43 201,6	Zomin– 86,6
Sharof Rashidov – 3 409,8	Do'stlik – 75,8
G'allaorol – 282,3	Arnasoy – 43,4
Baxmal – 256,8	Zarbdor – 13,1
Forish – 178,3	Mirzacho'l – 2,3
Zafarobod–86,9	

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

# Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar

(2019-2023-yillar yanvar-may)



2023- yilning yanvar-may oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **92,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **101,6** %ni tashkil etdi.



## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-may)




**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

# Ijara xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-may)

**2019- yilning yanvar-mayiga** nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **23,9** mlrd. so'mga oshib, **58,8** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **1,5 %** ni tashkil etdi.



**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-may** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **73,1 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

